

Asosiy maqsad – el-yurt farovonligini yanada yuksaltirish



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, mamlakatimiz Bosh vaziri Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida shu yilning 11-oktabr kuni Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurdi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimiz janubiy hududining ulkan iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha boshlangan keng ko'lamli islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari natijasida shahar va qishloqlar qiyofasi tubdan o'zgarib, aholining hayot darajasi yuksalmoqda.

Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga safarini Hakim at-Termizi majmuasini ziyorat qilishdan boshladi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti ushbu vohaga tashrifini odatda mazkur muqaddas qadamjoni ziyorat qilishdan boshlar edi. Islom Karimov tashabbusi bilan buyuk alloma abadiy qo'nim topgan ushbu maskanda keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi, ziyoratchilar uchun barcha qulay sharoitlar yaratilgan.

Shundan so'ng Shavkat Mirziyoyev bojxona terminali ham bo'lgan "Termez Cargo Sentre" xalqaro logistika markazi va bu yerda tashkil etilgan avtokemping faoliyati bilan tanishdi.

Katta miqdordagi yuklarga ishlov berish va ularni tushirish-ortish ishlari amalga oshiriladigan mazkur korxona hududida bojxona terminali binosi, 300 katta yuk mashinalariga mo'ljallangan joy, avtomobillarga yoqilg'i quyish stansiyasi, konteyner va boshqa yuklarni saqlash omborlari joylashgan, bu yerga temir yo'l liniyasi olib kirilgan.

Markazga tashrif buyuradiganlarning dam olishi uchun mazkur hududda barcha sharoit yaratilgan. Zamonaviy mehmonxona, restoran, suzish havzasi, fitnes-markaz, mini-market faoliyat ko'rsatmoqda.

Bunday majmualarning barpo etilishi tadbirkorlar uchun yaratilgan sharoitlarni yanada yaxshilash, xorijiy davlatlar bilan tovar ayriboshlash hajmini yuksaltirish, mamlakatimiz tranzit salohiyatini oshirish imkonini berishi ta'kidlandi.

Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz janubiy sarhadlaridagi chegara postlaridan birida bo'lib, davlatimiz sarhadlarini yanada mustahkamlash, harbiy xizmatchilar uchun sharoitlarni bundanda yaxshilash zarurligini qayd etdi.



Mutaxassislar Termiz shahri mavzeleridan birida kam ta'minlangan va yosh oilalar uchun yaqin yillarda qurilishi rejalashtirilayotgan ko'p qavatli zamonaviy uylar loyihalari bilan tanishtirdi.

Qishloq joylarda kam ta'minlangan oilalar uchun mo'ljallangan yakka tartibdagi zamonaviy, ixcham uy-joylar loyihalari ham ko'rib chiqildi.

Bu obyektlarning barchasi sifatli va o'z vaqtida qurilib, foydalanishga topshirilishi lozimligi ta'kidlandi.

Shavkat Mirziyoyev qurilishi davom etayotgan "Amudaryo sohili" sport-sog'lomlashtirish majmuasi obyektlarini ham ko'zdan kechirdi. 21 hektar maydonni egallagan ushbu hududda 50 dan ziyod obyekt quriladi. Jumladan, 200 o'ringa mo'ljallangan va yil davomida faoliyat ko'rsatadigan bolalar sog'lomlashtirish maskani bunyod etiladi. Majmua tarkibidan ochiq va yopiq suzish havzalari, sport inshootlari, turli to'garaklar uchun joylar, attraksionlar, sayilgohlar o'rinni oladi.

Mamlakatimiz Prezidenti vazifasini bajaruvchi Termiz tumanidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan yangi "Gold dried fruits export" mas'uliyati cheklangan jamiyati korxonasida ham bo'ldi. Bu korxonani tashkil etishga 25 million AQSh dollari yo'naltirilgan. Meva-sabzavotlar saqlash, quritish, muzlatish va qadoqlashga mo'ljallangan mazkur korxona Xitoy, Belgiya, Turkiya va Italiyada ishlab chiqarilgan zamонавиј ускуналар билан жиҳозланган. 350 kishi mehnat qilayotgan korxona mahsulotlari xalqimizga yetkazib beriladi, shu bilan birga, Rossiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarga eksport qilinadi.

Korxonaning "Gold agro fresh" agrofirmasi ko'chatlar parvarish qiladigan issiqxona xo'jaligiga va intensiv bog'lariga ega.

Mazkur korxonalar faoliyati bilan tanishish davomida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, qayta ishlangan meva-sabzavotlarni eksport qilishni ko'paytirish zarurligi qayd etildi.

Bu yerda viloyatdagи fermer, dehqon va yordamchi xo'jaliklarda meva-sabzavotlar yetishtirishni ko'paytirish, ularni moliyaviy resurslar va sifatli urug'lik bilan ta'minlash masalalari ham muhokama qilindi.

Shavkat Mirziyoyev Iso at-Termiziyy ziyoratgohida amalga oshirilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan ham tanishdi. Musulmon olamida olti buyuk muhaddisdan biri sifatida mashhur bo'lgan ulug' ajdodimizning bebaho merosi bugungi kunda ham keng o'rganilayotgani ta'kidlandi.

Shavkat Mirziyoyev Sherobod tumanida yirik sement zavodi qurilishining borishi bilan tanishdi. Qiymati 212,8 million AQSh dollari bo'lgan ushbu investitsiya loyihasining

amalga oshirilishi natijasida bu yerda yiliga 1,5 million tonna sement ishlab chiqariladi. Shunisi e'tiborliki, korxona asosiy xomashyo bazasiga yaqin joyda barpo etilmoqda. Mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarga yetkazib beriladigan mazkur zavodda mingdan ziyod ish o'rni yaratiladi.

Shu yerning o'zida viloyat markazida qurilishi rejalashtirilayotgan maishiy chiqindilarni qayta ishlash zavodi loyihasi muhokama qilindi. Bunday korxonalarini barcha shahar va tumanlarda barpo etish zarurligi ta'kidlandi.

Viloyat faollari bilan uchrashuv O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasiga hurmat bajo keltirish bilan boshlandi.

Yig'ilishda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uning eksport salohiyatini oshirish, istiqbolli yangi sanoat obyektlarini barpo etish, ijtimoiy infratuzilmani yanada yaxshilash borasidagi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Shavkat Mirziyoyev hukumat portalida ochilgan Bosh vazirning virtual qabulxonasiga kelayotgan murojaatlardan misollar keltirib, mutasaddilarga ushbu masalalarni vaqtida ko'rib chiqish va hal qilish bo'yicha aniq topshiriqlar berdi.

Sherobod tumani misolida viloyatni istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning kompleks dasturi ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda uy-joy fondi va ijtimoiy soha muassasalarining kuz-qish mavsumiga tayyorligi, viloyat sanoati va iqtisodiyotining boshqa sohalari uzlucksiz ishlashini ta'minlash, paxta hosilini qisqa muddatda yig'ishtirib olish, kuzgi ekinlarni ekish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari zaxirasini g'amlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

[O'zA](#)